

“NIKOH TUZISHDA NIMALARINI BILISH KERAK?

Sultanova G.Sh. Toshkent shahar

Yakkasaroy tumani 2-son FHDY

bo’limi 2-toifali inspektorি

Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo’lib, maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Amaldagi oila qonunchiligidagi nikohning tuzilish tartibiga, ya’ni uni davlatning tegishli organlari tomonidan rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor beriladi. Oila kodeksining 13-moddasiga binoan, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Shunday nikohgina huquq va majburiyatni vujudga keltiradi. FHDY organlarida nikohni tuzish tartibi quyidagi asosiy qoidalarga asosan amalga oshiriladi:

- nikoh faqat nikohlanuvchilarning ishtirokida tuziladi;
- nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy o’tgach amalga oshiriladi.

Biroq ushbu holatlarga nisbatan istisnolar ham mavjud. Jumladan, nikoh tuzish muddati qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Buning uchun qonunda nazarda tutilgan muayyan sabablar: homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqa shu kabilar mavjud bo’lishi talab etiladi.

Nikoh har qanday kelishuv singari muayyan shartlarga muvofiq tuzilishi kerak, mazkur shartlarga rioya etmaslik oqibatida u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bunday shartlar sifatida erkak va ayolning nikoh tuzishga ixtiyoriy roziligi, ularning nikoh yoshiga yetganligi, nikohlanuvchi shaxslardan hatto bittasi ilgari qayd etilgan nikohda turgan shaxslar o’rtasida nikoh tuzishning mumkin emasligi va shu kabi shartlarni ko’rsatish mumkin. Shunday shartlardan biri nikohlanuvchi shaxslardan hatto bittasi ilgari qayd etilgan nikohda turgan shaxslar o’rtasida nikoh tuzishning mumkin emasligi shartiga rioya qilmaslik huquqiy oqibatlariga to’xtalib o’tsak. Oila kodeksining 16-moddasida loaqlal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o’rtasida nikoh tuzilishiga yo’l qo’yilmasligi belgilab qo’yilgan. Vazirlar

Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-sod qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 76-bandiga muvofiq, ilgari nikohda bo‘lgan shaxs FHDY organiga avvalgi nikohi bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi kerak. Bu — bekor qilinganligi haqidagi guvohnoma yoki sud qarori, arning yoki xotinning o‘limi haqidagi guvohnoma va uning vafot etgan shaxs bilan tuzilgan nikohi haqidagi ma’lumotnama yoxud sudning nikoh haqiqiy emas deb topilganligi haqidagi qarori bo‘lishi mumkin. Bundan ko’rinadiki, ikkinchi nikohni qayd etish uchun birinchi nikoh bekor qilinishi lozim bo’ladi. Birinchi nikoh tugatilmasdan turib, ikkinchi ayol bilan nikoh qurish jinoyat qonunchiligidagi ko‘p xotinlik bo’lish deb ataladi. Jinoyat Kodeksining 126-moddasiga ko’ra, ko‘p xotinli bo‘lish, ya’ni umumiyo‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Demak, shunday holat qayd etilganda, nikohni haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo’ladi. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar qatoriga, nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida va loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmasligi holatlari ham kiradi. Ma’lumki qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh oqibatida ko‘pchilik bolalar nogiron bo‘lib tug‘ilishadi. Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Ruhiy kasalligi bo‘lgan shaxsning kasalligini bekitilib, ayrim ota-onalar qonun buzilishiga yo‘l qo‘yadilar. Natijada nikohning bekor qilinishi, oilada nogiron farzand tug‘ilishi kabi fojealar ham sud amaliyotida uchrab turadi. Qonuniy asoslarga ko’ra, nikoh tuzish bo‘lajak er-xotin uchun ham, jamiyat uchun ham g’oyat muhim ijtimoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan holat hisoblanadi. Shu sababli ham, qonunchilikda nikoh tuzish tartibi va shartlari belgilab qo‘yilgan. Ushbu talablarga qat’iy rioya qilish vujudga kelayotgan oila mustahkam va barqaror bo’lishini ta’minlaydi.